

Date: 13thDecember-2024

BUYUKLARNING VATANISAN, ANDIJON

Abdurazzaqova Farzonaxon Soxibjon qizi

Andijon viloyati Izboskan tumani 6-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi Musiqa nazariyasi bo'limi o'qituvchisi

O'zingdursan bizga doim qadrdon,
Soylaringdir Andijonsoy, Shahrixon.
Tog'laringga ta'zim aylandi osmon,
Buyuklarning vatanisan, Andijon.

Mohlaroyim qo'llaridan tutgansan,
Boburingni zor-intizor kutgansan.
Muhammadga yig'lab aza tutgansan,
Buyuklarning vatanisan Andijon.

Bokschilar, kurashchilar sharafda,
Raqqosalar o'ynashar bir tarafda.
Istiqbolga shoshar barcha bir safda,
Buyuklarning vatanisan Andijon.

